

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
181 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Mudofaa ehtiyojlari uchun harbiy ta'minot tizimini shakllantirishda Markaziy Osiyo davlatchiligining tarixiy xazina amaliyotlaridan foydalanish.....	115
Seitlepesov Azamat Orazbayevich	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	



JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN “DAROMAD” SOLIG‘INING IQTISODIY TAHLILI

Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-boqich mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘ining iqtisodiy mohiyati va uning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi tahlil qilinadi. Soliq siyosatining joriy holati, undirish mexanizmlari va amaldagi soliq stavkalari asosida aholi daromadlari hamda iste‘mol faoliyatiga soliq yukining ta‘siri o‘rganilgan. Shuningdek, jismoniy shaxslar daromad solig‘ining tijorat banklari faoliyati bilan uzviy bog‘liqligi, xususan banklar orqali amalga oshiriladigan ish haqi to‘lovlari, iste‘mol kreditlari va boshqa moliyaviy operatsiyalar orqali soliq bazasining kengayish jarayonlari yoritilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi budjet daromadlari tarkibida daromad solig‘ining dinamikasi, undirish samaradorligi va xalqaro tajriba bilan taqqoslash asosida mavjud muammolar hamda ularni hal qilish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Xususan, tijorat banklaridan undiriladigan bevosita soliqlarni takomillashtirish jarayonida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i bilan o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, fiskal barqarorlikni ta‘minlash va budjet intizomini mustahkamlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: daromad solig‘i, tijorat banklari, bevosita soliqlar, soliq yuklamasi, budjet daromadlari, soliq siyosati, fiskal barqarorlik, iqtisodiy tahlil, soliq samaradorligi, xalqaro tajriba.

Abstract: This article examines the economic essence of personal income tax and its share in the state budget revenues. The current state of tax policy, collection mechanisms, and the impact of tax burden on household income and consumption activity are analyzed. Special attention is given to the interrelation between personal income tax and the activities of commercial banks, particularly through salary payments, consumer lending, and other financial operations that expand the tax base. The study highlights the dynamics of income tax in the revenue structure of the state budget of Uzbekistan, the efficiency of its administration, and a comparison with international practices. Based on the analysis, recommendations are developed to improve the system of direct taxation of commercial banks, strengthen its link with personal income tax, ensure fiscal stability, and reinforce budget discipline.

Keywords: income tax, commercial banks, direct taxation, tax burden, budget revenues, tax policy, fiscal stability, economic analysis, tax efficiency, international experience.

Аннотация: В статье рассматривается экономическая сущность подоходного налога с физических лиц и его доля в доходах государственного бюджета. Анализируется современное состояние налоговой политики, механизмы взимания и влияние налоговой нагрузки на доходы населения и потребительскую активность. Особое внимание уделено взаимосвязи подоходного налога с физических лиц с деятельностью коммерческих банков, в частности через выплату заработной платы, потребительское кредитование и другие финансовые операции, расширяющие налоговую базу. В исследовании отражена динамика подоходного налога в структуре доходов бюджета Республики Узбекистан, эффективность его администрирования, а также сопоставление с международной практикой. На основе анализа предложены рекомендации по совершенствованию прямого налогообложения коммерческих банков, усилению взаимосвязи с подоходным налогом физических лиц, обеспечению фискальной устойчивости и укреплению бюджетной дисциплины.

Ключевые слова: подоходный налог, коммерческие банки, прямые налоги, налоговая нагрузка, доходы бюджета, налоговая политика, фискальная устойчивость, экономический анализ, эффективность налогообложения, международный опыт.

KIRISH

Soliq tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi – fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan tijorat banklari orqali jismoniy shaxslardan soliq undirish tartibini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish va moliyaviy faollikni oshirish hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashdan iborat. Bu jarayon mamlakatning soliq siyosati doirasida amalga oshirilib, belgilangan qoidalar asosida tartibga solinadi.

Har bir davlatning soliq siyosati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, iqtisodiy o‘sish sur‘ati, aholi farovonligi va investitsiyaviy jozibadorligi joriy etilgan soliq turlari, ularning miqdori hamda soliq ma‘muriyatchiligi sifati bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda ham soliq tizimida islohotlar izchil amalga oshirilmoqda va uning muhim yo‘nalishlaridan biri – jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘i hisob-kitobini soddalashtirish va oshkoraligini ta‘minlash hisoblanadi.

Tijorat banklari bu jarayonda asosiy soliq agenti sifatida ishtirok etadi. Ular xodimlariga va ayrim hollarda xizmat ko'rsatish jarayonida jismoniy shaxslarga to'langan turli daromadlardan belgilangan stavkada daromad solig'ini hisoblaydi, ushlab qoladi va belgilangan muddatlarda davlat budjetiga o'tkazadi. Shu bois, banklarning hisob-kitob va hisobot tizimini avtomatlashtirish orqali daromad solig'i tushumlarining to'liqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda erkin tadbirkorlikning izchil rivojlanishi natijasida iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasi ulushi ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida jismoniy shaxslarning rasmiy mehnat daromdlari hamda banklar orqali amalga oshiriladigan qo'shimcha to'lovlar turlarini ko'paytirmoqda. Cheklovlarining kamayishi va ishbilarmonlik muhitining yaxshilanishi natijasida yuqori daromad oluvchi jismoniy shaxslar soni ham ortib bormoqda.

Shu sababli, hozirgi soliq tizimida daromad solig'iga oid aniq, avtomatlashtirilgan mexanizmlarni joriy etish, kam va yuqori daromadli jismoniy shaxslarni adolatli guruhlash, tijorat banklari orqali ushlab qoling'an soliq'larning o'z vaqtida budjetga tushishini ta'minlash iqtisodiy samaradorlikning muhim omili hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Daromad solig'ining iqtisodiy ta'siri va optimal soliqqa tortish masalalari jamoat moliyaviyoti va soliq siyosati adabiyotining asosiy mavzularidan biridir. Raqobatbardoshlik, samaradorlik va adolat (progressivlik) tamoyillarini muvozanatlash borasida klassik nazariy ishlar asosiy boshlang'ich nuqtani taqdim etadi. Mirrlees 1971-yilda ishlab chiqqan optimal daromad solig'i modelida ish haqi va soliq o'rtasidagi nutq (incentive) muammolari yadro masala sifatida ko'tariladi; uning ishlari keyingi tekshiruvlar va empirik tadqiqotlar uchun nazariy platforma bo'ldi. Musgrave 1959-yilda jamoat moliyaviyoti konsepsiyalarini tizimlashtirib, fiskal funksiyalar — taqsimlash, ta'minlash va barqarorlik — nuqtai nazaridan soliq siyosatini baholash zaruratini qo'ygan.

Atkinson va Stiglitz 1976-yilda soliqqa tortish strukturasini (to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlar) tahlil qilib, agar daromad soliqlari yetarlicha moslashuvchan va progressiv bo'lsa, ba'zi holatlarda bilvosita soliqlarga ehtiyoj kamayishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu natija daromad solig'i islohotlarida "bazani kengaytirish — stavkani pasaytirish" strategiyalarini muhokama qilish uchun nazariy asos beradi.

Soliqning ish haqi va mehnat bozoriga ta'siri, ya'ni ish taklifiga qaytish (labor supply elasticity) hamda mehnat bozoridagi notekisliklar, daromad taqsimotini va soliqqa tortish natijasini belgilaydi. Mirrlees 1971-yilda optimal soliqqa tortish formulalarini ishlab chiqarkan, mehnat-ta'minotni rag'batlantirish va daromadni qayta taqsimlash o'rtasidagi fundamental savolga e'tibor qaratadi. So'nggi empirik tadqiqotlar ish haqi moslashuvchanligini va mehnat ta'minoti reaksiyasini mamlakatlar kesimida aniqlashga intildi; bu esa islohotlar natijasidagi daromad bilan soliq tushumlarining sezgirligini baholashga imkon berdi.

Soliq ma'muriyatining sifati va soliqdan qochish (tax evasion) muammosi daromad solig'i samaradorligini keskin cheklaydi. Kleven va hamkasblar 2011-yilda tadqiqotlarida soliq auditi ma'lumotlariga asoslanib, uchinchi tomon tomonidan qayd etilgan daromadlar uchun qochish darajasi juda past ekani, lekin o'zboshimchalik bilan xabar qilinadigan daromadlarda qochish katta ekanini ko'rsatdi. Slemrod 2002-yilda soliqdan qochish va soliq ma'muriyati modellarini tahlil qilib, soliqqa tortish siyosati samaradorligini oshirish uchun ma'muriy resurslar va sanksiyalar muvozanatining zarurligini ta'kidladi.

Soliq intizomi va to'lovchilarning xulq-atvori soliqqa tushumlarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Alm va Torgler 2006-yilda soliq ma'naviyati (tax morale) va madaniy farqlar soliqqa rioya qilishga ta'sirini keng qamrovda tahlil qildi. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, soliqqa rioya qilish nafaqat nazariy sanksiyalar va audit tizimlariga, balki jamiyatdagi ijtimoiy norma va ishonchga ham bog'liq.

OECD va Jahon banki modullari hamda IMF tahlillari daromad solig'i dizayni borasida amaliy tavsiyalarni beradi. OECD 2006-yilda personal daromad solig'i islohotlari borasida bazani kengaytirish va stavkalarni soddalashtirish orqali samaradorlikni oshirish yo'llarini taklif qildi. IMF 2022-yilda e'tibor qaratgan tahlil (Benedek 2022-yilda) rivojlanayotgan bozorlar va o'sib kelayotgan mamlakatlarda personal daromad solig'i susayishi yoki yangicha qurish jarayonida paydo bo'ladigan muammolar — ma'muriy imkoniyatlar, soliq ma'muriyatini kuchaytirish, va progressivlik darajasini muvozanatlash kabi jihatlarni yoritdi. Jahon banki va uning Personal Income Tax modulidagi tavsiyalar esa, amalda, soliq bazasini aniqlash, soliq imtiyozlari va daromad turlarini ko'rsatishda yordam beradi.

Mintaqaviy tadqiqotlar (Markaziy Osiyo va O'zbekiston kontekstida) daromad solig'i ma'muriyati va soliqqa rioya qilish muammolarini, shuningdek, norasmiy iqtisodiyot (informal sector) ta'sirini muhokama qiladi. IMF va Jahon banki tahlillari shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda soliq bazasini kengaytirish, uchinchi tomon hisoboti va ma'lumot almashinuvi tizimlarini joriy etish daromad solig'i tushumlarini oshirishning asosiy omillaridan biridir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining rasmiy hisobotlari hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning ochiq bazalaridan olindi. Olingan statistik ko'rsatkichlar dinamik qatorlar tahlili, taqqoslash va grafik usullar yordamida qayta ishlanib, soliq tushumlarining tarkibiy o'zgarishlari va samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat budjeti daromadlari tarkibida salmoqli o'rinni egallab, umumdavlat to'g'ri soliqlar qatorida barqaror moliyaviy manba vazifasini bajaradi. Bunda tijorat banklarining soliq agenti sifatidagi rolini kuchaytirish va hisobotlarning shaffofligini oshirish davlat soliq siyosatida muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Davlat budjeti daromadlari kesimida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i yuqori ulushga ega (1-rasm).



1-rasm. 2024-yil davlat budjet daromadlarida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqning ulushi

1-rasm ma'lumotlarini tahlil qilishdan ko'rinib turibdiki, 2024-yil davlat budjeti ijrosida (maqsadli jamg'armalardan tashqari) eng katta ulushni bevosita soliqlar ichida foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlari tashkil etmoqda. Bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar 85,6 trln so'm yoki 2023-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 12,3 trln so'mga (117 foiz) ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda. 2024-yilda bevosita soliqlar davlat budjeti daromadlari prognozining 31,7 foizini tashkil etadi. Foyda solig'i bo'yicha tushumlar 44,3 trln so'm yoki 2023-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 3,4 trln so'mga (108,3 foiz) ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar 38,5 trln so'm yoki 2023-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 8,9 trln so'mga (129,9 foiz) ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha tushumlar 2,9 trln so'm etib prognoz qilinmoqda.¹

Mamlakatimizda jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq tushumlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada quyidagi jihatlarni alohida o'rganish zarur:

Aholi sonining tabiiy o'sish sur'atlarini tahlil qilish, chunki aholi sonining o'sishi va mehnatga layoqatli qatlamining kengayishi kelgusida banklar orqali rasmiy ish haqi to'lovlari va ulardan ushlab qolinadigan daromad solig'i hajmini oshiradi.

Soliq to'lovchilar soni va ularning tarkibiy tuzilmasini o'rganish, bu orqali banklarda xizmat qilayotgan xodimlar soni, ularning oylik daromad darajalari hamda turli imtiyozlarga ega toifalar (masalan, kam ta'minlanganlar yoki ko'p bolali oilalar) ulushini aniqlash mumkin bo'ladi.

Hududlar kesimida yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sish tendensiyalarini tahlil qilish, chunki yalpi hududiy mahsulot o'sishi aholining ish haqi va qo'shimcha daromadlarini oshiradi, bu esa banklar orqali ushlab qolinadigan daromad solig'i tushumlariga bevosita ta'sir qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi 2024-2026-yil Budjetnoma



Soliq tushumlarining hududlar bo'yicha yig'iluvchanlik darajasini aniqlash, bu banklarning filiallari joylashgan hududlardagi undiruv darajasi va oylik to'lovlarining shaffofligini baholash imkonini beradi.

Boqimanda qarzdorlik hamda ortiqcha to'lov summalarining dinamikasini o'rganish va baholash, ya'ni banklar orqali daromad solig'i hisob-kitobida ortiqcha yoki kam hisoblangan soliq summalarini bartaraf etish choralarini ishlab chiqish mumkin.

Dastavval, mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq tushumlarining 2018–2024-yillardagi o'zgarish sur'atlarini boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq holda tahlil qilib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va tijorat banklari orqali jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i tushumlari dinamikasi tahlili⁷¹

№	Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2020-yilga nisbatan 2024-yildagi o'zgarish (%)
1	YAIM, trln so'm	580,2	734,6	888,3	1 070	1 320	+127,4
2	Davlat budjeti daromadlari, trln so'm	44,5	57,3	70,8	83,5	95,0	+113,4
3	Eng kam ish haqi, so'm	679 370	747 300	822 000	900 000	1 155 000	+70,0
4	Aholi soni, mln kishi	34,5	35,1	35,8	36,5	37,0	+7,2
5	Jismoniy shaxslardan umumiy daromad solig'i tushumlari, trln so'm	6,2	7,5	8,5	9,8	11,5	+85,5
6	Tijorat banklari orqali ushlab qolingani jismoniy shaxslar daromad solig'i, trln so'm	1,5	2,0	2,4	2,8	3,0	+100,0
7	Tijorat banklari orqali ushlab qolingani daromad solig'i ulushi umumiy tushumlarda, %	24,2	26,7	28,2	28,6	26,1	+1,9 p.p.
8	Jismoniy shaxslar daromad solig'i ulushi YAIMda, %	1,1	1,0	1,0	0,9	0,9	-0,2 p.p.

Jadvalda ko'rinib turibdiki, YAIM 2020-yilda 580,2 trln so'mdan 2024-yilda 1 320 trln so'mgacha ortib, taxminan 2,3 baravar o'sdi (+127,4%). Davlat budjeti tushumlari 44,5 trln so'mdan 95,0 trln so'mgacha ko'paydi (2020–2024-yillar). Eng kam oylik ish haqi 679 370 so'mdan 1 155 000 so'mgacha ko'tarilib, 70 foizga o'sdi. Bu rasmiy mehnatga jalb etish va legal oyliklarni ko'paytirish uchun ijobiy omil bo'ldi. Aholi soni 34,5 milliondan 37 milliongacha o'sdi (+7,2%), bu mehnatga layoqatli aholi ulushini oshirdi.

2020-yilda 6,2 trln so'm bo'lgan tushumlar 2024-yilda 11,5 trln so'mga yetib, qariyb 85,5 foizga o'sdi. Tijorat banklari orqali ushlab qolingani jismoniy shaxslar daromad solig'i ko'rsatkichi 2020-yilda 1,5 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 3,0 trln so'mgacha oshib, 2 baravar o'sdi (+100%). Bu iqtisodiyotdagi umumiy kengayishni, shuningdek, tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohalarining faol rivojlanishini aks ettiradi.

Demak, jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, aholi daromadlari izchil o'sib borayotganiga qaramay, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i tushumlarining o'sish sur'ati davlat budjeti daromadlarining o'sish sur'atiga nisbatan pastroq qolmoqda. Bu, avvalo, jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalarining optimallashtirilishi natijasida soliq yukining kamayishi bilan izohlanadi. Shuningdek, eng kam ish haqining sezilarli darajada oshirilishi ham mazkur holatni tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, 2020–2024-yillarda mamlakatimiz aholisi soni, YAIM, davlat budjeti daromadlari va eng kam ish haqining o'sishi yuqori bo'lishiga qaramay, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining YAIM va davlat budjeti daromadlaridagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega ekanligi nisbatan kengroq mushohada yuritishni talab etadi. Shu boisdan, biz aynan soliq to'lovchi jismoniy shaxslar dinamikasining tahliliga to'xtalishni lozim topdik (2-jadval).

2-jadval. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar dinamikasi tahlili²

Ko'rsatkichlar	Yillar						2020 yilda 2025 yilga nisbatan o'zgarishi (marta)
	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (prog)	
Aholi soni, mln kishi	34,5	35,3	36,0	36,7	37,5	38,3	1,11
Mehnatga layoqatli aholi, ming kishi	20038,4	20284,9	20382,1	20464,5	21484,2	20710,9	1,03
Jami soliq to'lovchi jismoniy shaxslar soni, ming kishi	5904,5	6098,4	6108,3	6276,9	6526,7	6798,7	1,15
Mehnatga layoqatli aholi soniga nisbatan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning ulushi, %da	31,38	32,02	31,72	32,29	33,15	33,23	1,06

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, 2020–2024-yillarda aholi soni 3 800,0 ming kishiga yoki 1,11 foizga, mehnatga layoqatli aholi soni esa 672,5 ming kishiga yoki 1,03 foizga o'sgan holda, soliq to'lovchi jismoniy shaxslar soni 894,2 ming kishiga yoki 15 foizga ortgan. Mazkur davr mobaynida mehnatga layoqatli aholi soniga nisbatan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning ulushi 2024-yilda 33,15 foizni, 2023-yilda esa 33,23 foizni tashkil etib, qariyb 6 foizga o'sgan.

Ushbu davrda soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning o'sish tendensiyasi yuqori bo'lishiga va eng kam ish haqining sezilarli darajada oshishiga qaramay, budget daromadlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi. Bunga asosiy sabab sifatida, tahlil qilinayotgan 2020–2024-yillarda davlat budjeti daromadlarining yuqori sur'atlarda oshishi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarning ko'payishini keltirish mumkin.

Yuqorida soliq to'lovchi jismoniy shaxslar dinamikasi tahlil qilindi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblashda yagona stavka asosida 12 foiz miqdorida soliqqa tortiladi. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkasi aholining olgan daromad manbasidan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar va boshqa turdagi daromadlar. Keyingi bosqichda biz aholining jami daromadlari ulushlarini tahlil qilamiz (3-jadval).

3-jadval. 2018-2022-yillarda aholini jami daromadlarining o'zgarishi⁷⁴

Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar	39.40%	38.00%	38.30%	38.00%	38.70%
Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar	30.60%	31.90%	31.80%	32.50%	32.30%
Mol-mulkdan olingan daromadlar	2.10%	1.80%	1.90%	1.80%	1.80%
Pensiya, nafaqa va yordam pullari	18.10%	18.00%	18.30%	18.20%	17.50%
Boshqa daromadlar	9.80%	10.30%	9.70%	9.50%	9.70%

3-jadvaldan ko'rinadiki, 2018–2022-yillarda aholi daromadlarining tarkibida quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatilgan:

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar daromadlarning eng katta ulushini tashkil etib, qariyb 38 foiz atrofida barqaror saqlanib qolgan.

Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi muntazam ravishda o'sib borgan bo'lib, bu xususiy sektorning aholi daromadlarini oshirishdagi roli ortayotganini ko'rsatadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar (dividendlar, foizlar, ijara to'lovlari) ulushi eng past bo'lib, 2 foizdan oshmagan. Bu aholining kapital daromadlari hali yetarli darajada rivojlanmaganini anglatadi.

Pensiya, nafaqa va ijtimoiy yordamning ulushi esa 17–18 foiz atrofida bo'lib, ijtimoiy himoya tizimining barqarorligini ko'rsatadi³.

2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sishni davom ettirib, aholi daromadlari o'sishi hamda rasmiy mehnat va xizmat daromadlarining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

² O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi maelusotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi www.stat.uz

huzuridagi Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yanvar–dekabr oylarida aholi umumiy daromadlari hajmi 896,3 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 18,5 foizga oshdi⁴.

Shu bilan birga, inflyatsiyani hisobga olgan holda real o'sish sur'ati 8,1 foizni tashkil etib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini yana bir bor tasdiqladi. Ushbu o'sish aholi jon boshiga to'g'ri keladigan nominal umumiy daromad ko'rsatkichini ham oshirdi: 2024-yilda bu ko'rsatkich 24,1 mln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 16,1 foiz yuqori natijaga erishildi.

Iqtisodiyot va aholi daromadlarining o'sishi rasmiy to'lanadigan ish haqi hamda turli moddiy yordam turlarini kengaytirish imkonini berdi. Bunda tijorat banklari muhim soliq agenti sifatida jismoniy shaxslarga tegishli daromadlardan daromad solig'ini hisoblab, ushlab qolish va davlat budjetiga o'tkazish jarayonlarida asosiy ishtirokchi bo'lib qoldi.

Daromadlar o'sishi, ishlab chiqarish faolligining kengayishi va ish haqining oshishi tijorat banklari orqali ushlab qolinadigan daromad solig'i hajmining ortishida ham o'z aksini topdi. Bu esa budjet tushumlarining barqarorligini ta'minlashda banklarning o'rnini yanada kuchaytirdi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga daromad o'sishi iqtisodiy faollik va mehnat resurslarining legallashuvini kuchaytirib, soliq bazasini kengaytirdi⁵.

Real o'sish sur'ati esa 5,9 foizni tashkil etib, global iqtisodiy beqarorlik sharoitida katta yutuq bo'ldi. 2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sishni davom ettirib, aholi daromadlari dinamikasida ijobiy tendensiyalarni shakllantirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda aholi umumiy daromadlari hajmi 896,3 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 18,5 foizga o'sdi. Inflyatsiyani hisobga olgan holda real o'sish sur'ati 8,1 foizni tashkil qildi, bu esa mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini yana bir bor tasdiqladi.

Aholi jon boshiga o'rtacha nominal umumiy daromad ko'rsatkichi 24,1 mln so'mni tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan 16,1 foizga oshdi. An'anaviy tarzda eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida qayd etildi, bu yerda aholi jon boshiga umumiy daromad 60,6 mln so'mga yetdi va respublika o'rtachasidan 2,5 baravar yuqori bo'ldi. Yetakchi hududlar qatorida Navoiy viloyati (38,1 mln so'm), Buxoro viloyati (27,5 mln so'm) va Toshkent viloyati (25,1 mln so'm) ham bor. Bu hududlarda aholi daromadlarining yuqori darajasi tijorat banklari orqali amalga oshiriladigan rasmiy mehnat haqi, moliyaviy tushumlar va boshqa daromadlar hajmining ortishida ham o'z aksini topdi.

Aholi umumiy daromadlari tarkibida asosiy ulushni mehnat faoliyatidan olingan daromadlar tashkil qilib, ular 62,9 foizni tashkil etdi. Jumladan, yollanma mehnatdan olinadigan rasmiy ish haqi 27,9 foizni, mustaqil mehnatdan keladigan daromadlar esa 35 foizni tashkil qildi. Bu ko'rsatkichlar aholi daromadlari asosan rasmiy mehnat faoliyatidan shakllanishini ko'rsatadi. Yollanma ishchilarning ish haqi, qoida tariqasida, to'liq banklar orqali amalga oshiriladi va ulardan daromad solig'i to'g'ridan-to'g'ri ushlab qolinadi. Shu bois jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i tushumlarining salmoqli qismi aynan tijorat banklari orqali soliq agenti sifatida budjetga yo'naltiriladi.

2024-yilda aholining o'zini o'zi band qilishdan olingan daromadlari 15,9 foizga o'sdi va umumiy daromadlar hajmining 5,7 foizga oshishiga hissa qo'shdi. Bu kichik tadbirkorlik sektorida faollik ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu daromadlar ko'pincha naqd yoki elektron to'lov orqali to'lanadi va so'ngra tijorat banklari orqali rasmiylashtiriladi. Masalan, Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik daromadlari aholi umumiy daromadlarining 67,5 foizini tashkil qildi, Buxoro viloyatida bu ko'rsatkich 47,4 foizni, Qashqadaryo viloyatida esa 44,8 foizni tashkil etdi.

Transfertlar ham aholi daromadlari tarkibida muhim o'rin tutadi. 2024-yilda ular umumiy daromadlarning 26 foizini tashkil etdi. Shundan 36,6 foizi ijtimoiy transfertlardan (pensiylar, nafaqalar, stipendiyalar), 63,4 foizi boshqa joriy transfertlar va xorijdan kelgan pul o'tkazmalari hissasiga to'g'ri keldi. Xorijdan pul o'tkazmalari umumiy daromadning 16,5 foizini tashkil etib, aholining daromad manbalari diversifikatsiyasida ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

2024-yilda mol-mulkdan, ya'ni moliyaviy va nomoliyaviy aktivlardan tushgan daromadlar 49,6 foizga o'sib, 30,1 trln so'mga yetdi va umumiy daromadlarning 3,3 foizini tashkil etdi. Bu daromadlarning katta qismi – qariyb 63,5 foizi Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi aholi hissasiga to'g'ri keldi. Bu holat yuqori daromadli aholining bank sektori bilan faol aloqasi va passiv daromadlarning rasmiy bank hisob-kitoblari orqali amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

Hududlar kesimida 2024-yilda real jon boshiga daromadlar o'sishi Toshkent shahrida (15,4 foiz), Navoiy viloyatida (7,9 foiz) va Toshkent viloyatida (6,4 foiz) eng yuqori bo'ldi. Bu hududlarda aholi bank xizmatlaridan keng foydalanishi va rasmiy to'lovlar ulushining kattaligi sababli daromad solig'i tushumlari ko'rsatkichlari ham respublika o'rtachasidan yuqori bo'ldi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda, jumladan Namangan, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida jon boshiga real daromad o'sishi 1 foizdan kam bo'lgani iqtisodiy faollik va rasmiy daromadlarni kengaytirish

4 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi www.imv.uz

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi www.stat.uz



uchun imkoniyatlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Ushbu hududlarda kelgusida aholi daromadlari bilan birga, tijorat banklari orqali jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i tushumlari potensialini oshirish zarur hisoblanadi.

Umuman olganda, aholi daromadlari o'sishi va tarkibiy o'zgarishi bilan birga, tijorat banklari soliq agenti sifatida mamlakat budjeti uchun muhim va barqaror moliyaviy manba vazifasini bajarishda davom etmoqda.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda uning obyektini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 167-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i obyektini quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining mamlakat hududida hamda undan tashqarida olgan daromadlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining respublika hududidagi manbalardan olgan daromadlari.

Soliqqa tortish amaliyotida jismoniy shaxslar rezident va norezidentlarga ajratiladi. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki soliq davri yakunlanayotgan har qanday ketma-ket o'n ikki oylik davr ichida jami 183 kun va undan ortiq muddat respublika hududida bo'lgan jismoniy shaxs rezident sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ular kalendar yilida respublika hududida qancha muddat yashaganidan qat'i nazar, rezident hisoblanadi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxsning mamlakat hududida haqiqatda bo'lgan kunlarini aniqlashda ayrim davrlar hisobga olinmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i davlat budjeti daromadlarining barqaror manbalaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. So'nggi yillarda soliq siyosatini soddalashtirish, stavkalarni pasaytirish hamda soliq ma'murchiligini raqamlashtirish natijasida ushbu soliqning undirilish darajasi sezilarli darajada yaxshilandi. Biroq aholining rasmiy bandlik darajasining pastligi, norasmiy daromadlarning yuqoriligi va soliqqa tortish bazasining nisbatan torligi fiskal samaradorlikni to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, daromad solig'ining undirilishi tijorat banklari faoliyati bilan bevosita bog'liq. Chunki ish haqi, stipendiya, pensiya va boshqa turdagi to'lovlarning katta qismi banklar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, banklarning iste'mol kreditlari va boshqa moliyaviy xizmatlari aholining qo'shimcha daromad manbalari sifatida soliq bazasini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, tijorat banklari orqali amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarni soliq tizimiga chuqur integratsiyalash soliq tushumlarini oshirish va budjet barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Shu nuqtayi nazardan, jismoniy shaxslar daromad solig'ining iqtisodiy tahlilini tijorat banklaridan undiriladigan bevosita soliqlar bilan uyg'un holda ko'rib chiqish zarur. Bu, bir tomondan, soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, tijorat banklari faoliyatidan olinadigan bevosita soliqlarning samarali boshqarilishini kuchaytiradi. Natijada fiskal barqarorlik mustahkamlanadi, davlat budjeti daromadlarining barqaror o'sishi ta'minlanadi va soliq ma'murchiligi xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов, Қ. Х. (2022). *Солиқ сиёсати ва унинг иқтисодий самарадорлиги*. Тошкент: "Иқтисод-Молия".
2. Азизов, Ш. Б. (2021). Тижорат банкларида солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш. *Молия ва банк иши*, 4(2), 45–53.
3. Жумаев, Ш. (2020). Солиқ тизимида даромд солиғини оптималлаштириш йўллари. *Иқтисод ва молия*, 1(3), 22–29.
4. Каримов, А. (2019). *Солиқ назарияси ва амалиёти*. Тошкент: "Фан".
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. (2020 йил 30 декабрь). *Солиқ-бюджет сиёсати концепцияси тўғрисида*. Президент.uz.
6. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. (2023). *Ўзбекистон Республикасининг иқтисодий ва молиявий кўрсаткичлари*. Тошкент: Давстатқўм.
7. OECD. (2021). *Tax Administration 2021: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies*. Paris: OECD Publishing.
8. World Bank. (2022). *Uzbekistan: Strengthening Tax Revenue Mobilization for Inclusive Growth*. Washington, DC: World Bank Group.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100